Xalq deputatlari Taxiatosh tumani Kengashi
QARORI

Xaliq deputatlari Taqiyatas rayonliq Ken'esi
SHESHIMI

2021 - yil 23 - noyabr II-35-1-13-215-K/21 Taxiatosh tumani hokimligi

Taxiatosh tumani hududidagi dam olish maskani hamda qabristonlariga nom berish va qayta nomlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasining "Geografik obyektlarning nomlari to'g'risida"gi Qonuni (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2011-y., 41-son, 448-modda), Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrdagi "Geografik obyektlarning nomlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida"gi 295-sonli qarori (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2012-y., 4142-son, 483-modda) hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 11-mart kungi 01-30/1-3425-sonli bayoni ijrosini ta'minlash, shuningdek geografik obyektlarni nomlash sohasidagi davlat siyosatini samarali amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6-moddasiga asosan kun tartibidagi masala deputatlar tomonidan atroflicha muhokama qilinib Xalq deputatlari Taxiatosh tuman Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. Taxiatosh tumani hokimligi huzuridagi geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo'yicha tuman komissiyasining bayonnomasiga asosan, tuman hududidagi nomlanadigan va qayta nomlanadigan qabristonlar nomlari ro'yxati 1-ilovaga asosan tasdiqlansin.

2. Tuman statistika bo'limi v.v.b. (G'.Karabayev), tuman davlat soliq inspektsiyasi (Q.Aliyev) va tegishli mutasaddi tashkilotlarga:

Mazkur qaror 1-ilovasida amalga oshirilayotgan o'zgarishlarni e'tiborga olsin va mazkur qarordan kelib chiqqan holda tegishli idoraviy hujjatlarga o'zgartirishlar kiritish vazifasi yuklatilsin.

3. Mazkur qaror bilan bog'liq hujjatlar geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi komissiyasiga taqdim etilsin.

4. Mazkur qaror ijrosini ta'minlash bilan bog'liq moliyalashtirish yuzasidan tuman moliya bo'limi (J.Saparov) 3 kun muddatda tuman hokimligiga taklif kiritsin.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o'rinbosari, Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo'yicha tuman komissiyasi raisi o'rinbosari (Z.Djiyemuratov)ga, Xalq deputatlari Taxiatosh tumani Kengashining “Ta`lim, sog’liqni saqlash, madaniyat, sport, va ijtimoiy himoya masalalari” bo'yicha doimiy komissiya raisi (E.Ametova)lar zimmalariga yuklatilsin.

6. Mazkur qarorni “Taqiyatas xabarlari” gazetasida nashr qilinsin va tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

7. Ushbu qaror rasmiy nashrda e’lon qilingan kundan e’tiboran qonuniy kuchga kiradi.

Kengash Raisi **I.I.Matkarimov**

Халқ депутатлари Тахиатош туман
Кенгашининг
2021 йил 23 ноябрдаги
II-35-1-13-215-K/21-сон қарорига
1-илова

Taxiatosh tumani hududidagi nomlash va qayta nomlash berish bo‘yicha geografik obyektlar ro‘yxati

T/R	Geografik obyektlarning nomlari	Geografik obyektlarning turi	Geografik obyektlarning joylashuv o‘rni	Atamasi o‘zgarishi bo‘yicha tavsiya
“Naymanko‘l” OFY				
1	“Katmanchi bobo”	Qabriston	“Naymanko‘l” OFY	
2	“Sari Iyshon bobo”	Qabriston	“Naymanko‘l” OFY	
3	“Проваслав”	Qabriston	“Naymanko‘l” OFY	
“Keneges” OFY				
4	“Dali bobo”	Qabriston	“Keneges” OFY	
“Markaziy” MFY				
5	“Ajiniyaz”bolalar dam olish maskani	Dam olish bog‘i	“Markaziy”MFY	